**XALQ DEPUTATLARI KATTAQO’RG’ON TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 25-aprel VI-100-51-7-96-K/24 Kattaqo’rg’on tumani

**2024-yil tumanning yoqilgʻi-energiya resurslari balansi va “2024-yilda Kattaqoʻrgʻon tumanida energiya tejash boʻyicha chora-tadbirlar” rejasi tasdiqlash toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi “Yoqilgʻi-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-54-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 28-fevral kuni oʻtkazilgan videoselektr yigʻilishida berilgan topshiriq hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 1-martdagi 03-379-sonli topshiriqlarni ijrosi taʼminlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan oltinchi chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100-sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 28-fevral kuni oʻtkazilgan videoselektr yigʻilishida berilgan topshiriq hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 1-martdagi 03-379-sonli topshiriq xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil tumanning yoqilgʻi-energiya resurslari balansi va “2024-yilda Kattaqoʻrgʻon tumanida energiya tejash boʻyicha chora-tadbirlar” rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari (L.Raxmonov), “Qoradaryo” elektr taʼminoti boshligʻi (J.Alimov), “Kattaqoʻrgʻontumangaz” gaz taʼminoti boʻlimi (O.Qoʻldoshev)ga:

- iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va koʻp kvartirali turar joy fondini qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash boʻyicha belgilangan vazifalar ijrosini oʻz vaqtida va sifatli bajarish;

- ijtimoiy soha obyektlarini, shu jumladan maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi, sogʻliqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport obyektlarini talofat yetkizmaslik yuzasidan manzilli tadbirlarni belgilash hamda ularning amalga oshirilishini taʼminlash;

- tumanning gaz bilan taʼminlanmagan hududlarda yashovchi aholisiga suyultirilgan gaz va koʻmir yoqilgʻisi bilan oʻz vaqtida va toʻliq taʼminlash choralarni koʻrish;

- aholiga, ijtimoiy soha obyektlariga va boshqa toifadagi isteʼmolchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish boʻyicha muntazam ravishda “Mahallabay” tizimda oʻrganishlar olib borish; - koʻp kvartirali turar joy fondini qish

davriga tayyorlash, jumladan ularni taʼmirlash va ichki muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini soz holatga keltirish bilan bogʻliq ishlarni sifatli tashkil etish;

- tumanda tuzilgan ishchi guruh bilan hududlarda, ayniqsa, qishloq aholi punktlarida, ijtimoiy soha obyektlarini qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasidagi ishlarning holatini oʻrganish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishi kabi vazifalar topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiya raisi (A.Irgashov), tuman hokimi oʻrinbosari L.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

TESHAYEV MUXIDDIN XOLIKULOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-100-51-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2024-yil tumanning yoqilg'i-energiya resurslari balansi va "2024-yilda Kattaqo'rg'on tumanida energiya tejash bo'yicha chora-tadbirlar" rejasi "Kattaqo'rg'ontumangaz" gaz ta'minoti bo'limi tomonidan energiya resurslarini tejash bo'yicha amalga oshiriladigan**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| t/r | Chora-tadbirlar (korxona va tashkilot nomi ham ko'rsatiladi) | Amalga oshirish mexanizmi | Iqtisod qilinadigan resurslar (ming M3) | Bajarish muddati | Zarur mablag' (mln so'm) | Moliyalashtirish manbai | Mas'ullar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | ijroga | nazoratga |
| 1. | Gaz tarmoqlari va qurilmalarni yangilash va ta'mirlash bo'yicha | 2500 metr gaz tarmog'ini rekonstruksiya qilish, 3 dona GTPni mukammal ta'milash, 110 dona GTPni joriy ta'mirdan o'tkazish, 170 ta regulator o'rnatish. | | mavsumiy | Shartnomaning asosi | "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali hisobidan | Gaz uskunalaridan foydalanish va ta'mirlash xizmati chilangarlari Ш.Нарзуллаев, Э.Пирматов, А.Ахадов | "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali |
| 2. | Aholi xonadonlaridagi 1654 ta nositandart va manaviy eskirgan gaz | Axoli xonadonlaridagi 1654 ta nostandart va manan eskirgan gaz gorelkalarini xonadonlarga ogohlantirish berilib bosqichma | 982,4 | mavsumiy | Shartnomaning asosi | O'z hisobidan | Gaz uskunalaridan foydalanish va ta'mirlash xizmati chilangarlari | "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | gorelkalarini zamonaviy energiya tejamkor gaz gaz gorelkalariga almashtirish | bosqich eamonaviy energiya tejamkor gaz gorlkalariga almashtirish | | | | | A.Nizomov | |
| 3. | Tabiiy gazdan foydalanuvchi 28 ta umumiy ovqatlanish shaxobchalarini suyultirilgan gaz, ko‘mir, va boshqa yoqilg‘i turlariga moslashtiriladi. | tabiy gazdan foydalanuvchi 28 ta umumiy ovqatlanish shaxobchalarini ogoxlantirib berilib bosqichma bosqich suyultirilgan gaz, ko‘mir, va boshqa yoqilg‘i turlariga moslashtiriladi | 156,757 | doimiy | Shartnomag a asosan | O‘z hisobidan | Yirik xudud ustalari J.Jomurodov, O.Yusupov | “Hududga z Samarqan d” gaz ta’minoti filiali |
| 4. | Tumandagi 4 ta issiqxona xo‘jaliklarini tabiy gazdan to‘liq ko‘mir, va boshqa yoqilg‘i turlariga moslashtiriladi | Tumandagi 4 ta issiqxona xo‘jaliklarini ogoxlantirib berilib bosqichma bosqich tabiy gazdan to‘liq ko‘mir, va boshqa yoqilg‘i turlariga moslashtiriladi | 633,475 | mavsumiy | Shartnomag a asosan | O‘z hisobidan | Kattaqo‘rg‘on tuman GTB Maxallabay ishlash xizmati boshlig‘i J.Xomidov | “Hududga z Samarqan d” gaz ta’minoti filiali |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Tumandagi 4 ta ulgurji iste’molchilar (issiqxona) tabiiy gazdan to‘liq ko‘mirga moslashtiriladi | Tumandagi 4 t a ulgurji iste’mochlchilar (issiqxona) ogohlantirish berilib, bosqichma bosqich tabiiy gazdan ko‘mirga moslashtiriladi | 4 ta | mavsumiy | Shartnomag a asosan | O‘z hisobidan | Kattaqo‘rg‘on tuman GTB Maxallaboy ishlash xizmati boshlig‘i J.Xomidov | “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali |
| 6. | Barcha aholi va ulgarji iste’molchilarga ASKUG tizimiga mos bo‘lgan hisoblagichlar o‘rnatilishini ta’minlash hamda aloqaga chiqmaganlarini aloqasini tiklash | Jami 19430 ta, shundan 1096 ta aholi va 3 ta ulgurji iste’molchilarga ASKUG tizimiga mos bo‘lgan hisoblagichlar o‘rnatilishini ta’minlash. ASKUGga aloqaga chiqarilishini ta’minlash | 1069 aholi, 3 ta ulgurji korxonalar | doimiy | Shartnomag a asosan | “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali hisobidan | Kattaqo‘rg‘on tuman GTB Maxallabay ishlash xizmati boshlig‘i J.Xomidov | Hududgaz Samarqand" Gaz ta’minoti filiali |

**“Qoraqdaryo” elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan energiya resurslarini tejash bo‘yicha amalga oshiriladigan**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| t/r | Chora-tadbirlar (korxona va tashkilot nomi ham ko‘rsatiladi) | 2024-yil iste‘mol prognozi (ming kVt.soat) | Amalga oshirish mexanizmi | Iqtisod qilinadigagan resurslar (ming kVt.soat) | Iqtisod hisobiga 2024-yil iste‘mol prognozi (ming kVt.soat) | Bajarish muddati | Mas’ullar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | ijroga | nazoratga |
| | **jami** | **342.470** | | **49243.7** | **293226.3** | | | |
| **1.** | **Tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish** | **342.470** | | **18685.7** | **323784.3** | | | |
| | Mavsumiy ishlaydigan iste’molchilarning, jumladan fermer xo‘jaliklari va boshqa mavsumiy xususiyatli iste’molchilarning tashqi elektr ta’minotini mavsumdan tashqari o‘chirish orqali transformator punktlarining texnologik sarflarini tejash | **342.470** | Mavsumiy ishlaydigan 214 ta jumladan, 176 ta fermer xo‘jaligi va 38 ta boshqa mavsumiy xususiyatli iste’molchilarning tashqi elektr ta’minoti mavsumdan tashqari o‘chirish orqali transformator punktlarining texnologik sarflari tejab qolinishiga | | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | erishish. | | | | | |
| | 50 kVA dan ortiq quvvat olidigan 162 ta iste'molchilar tomonidan tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish hamda reaktiv quvvatini kompensatsiya qilish qurilmalari o'rnatish | | Tashkiliy-texnik tadbirlar hamda reaktiv quvvatini kompensatsiya qilish | **1072.3** | Doimiy | Shartnomaga asosan | "Qoradaryo" elektr tarmoqlari korxonasi | |
| | Elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanishlarni bartaraf etish orqali | | Elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanishlarni bartaraf etish bo'yicha doimiy nazorat tadbirlarini olib borish hamda federlar kesimida hisob-kitob tizimini yo'lga qo'yish | **1097.5** | Doimiy | Shartnomaga asosan | "Qoradaryo" elektr tarmoqlari korxonasi | |
| **II** | **Modernizatsiya** | | | **4247,4** | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **va texnik tadbirlar** | | | | | | | |
| | Kam yuklama bilan ishlayotgan transformatorlarni ehtiyojga mos transformatorlarga almashtirish | | Tahlil natijasiga ko‘ra, iste’molchilar balansidagi 42 ta transformator punktlari 30 foizdan kam yuklanganligi aniqlandi. Ushbu transformatorlarni ehtiyojga mos transformatorlarga almashtirish. | **100,6** | Doimiy | Shartnomaga asosan | “Qoradaryo” elektr tarmoqlari korxonasi | |
| | Elektr tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish | | Tarmoqlarni modernizatsiya qilish, joriy va mukamma ta’mirlash ishlarini olib borish, yuklamalarni teng taqsimlash, kontakt qizishlarini bartaraf etish hisobiga elektr tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish | **3920,0** | Doimiy | Shartnomaga asosan | “Qoradaryo” elektr tarmoqlari korxonasi | |
| | Reaktiv energiya iste’moli bo‘yicha ustama va isrof miqdori to‘lamayotgan (fermer xo‘jaliklariga qarashli nasos qurilmalari) 146 ta iste’molchilar | | Reaktiv energiya iste’moli bo‘yicha ustama va isrof miqdori to‘lamayotgan (fermer xo‘jaliklariga qarashli nasos qurilmalari) 146 ta iste’molchilar | **226,8** | Doimiy | Shartnomaga asosan | “Qoradaryo” elektr tarmoqlari korxonasi | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | tomonidan reaktiv quvvatni konpensatsiya qilish tadbirlari. | | tomonidan reaktiv quvvatni konpensatsiya qilinish tizimini yo‘lga qo‘yish | | | | | |
| **III** | **Quyosh panellari o‘rnatish** | | | **24053,6** | | | | |
| | Aholi va ulgurji iste’molchilarning mavjud imkoniyati va elektr energiyasi iste’moli hajmidan kelib chiqqan holda quyosh panellari o‘rnatish orqali qo‘shimcha energiya manbaasini yaratish | | 97 ta xonadonlarga quvvati 3 kVt va 104 ta ijtimoiy soha binolariga 7 kVt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish 16 ta yirik quvvatli iste’molchilarga hamda quvvati | **3496,4** | Doimiy | Shartnomaga asosan | “Qoradaryo” elektr tarmoqlari korxonasi | |
| | | | 50 kVt dan yuqori bo‘lgan 96 ta iste’molchilarga yillik iste’molining 10 foizi qoplovchi quyosh panellari o‘rnatish | **19963** | | | | |
| | | | 52 ta kichik quvvatli iste’molchilarga quvvati 18 kVtdan bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish | **894,2** | | | | |
| **IV** | **ASKUE tizimini tartibga solish** | | | **2257** | | | | |
| | Barcha aholi va ulgurji iste’molchilarga | | Jami 2954 ta, shundan 2631 ta aholi va 323 ta | **1123**<br>**1134** | Doimiy | Shartnomaga asosan | “Qoradaryo” elektr tarmoqlari | |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ASKUE tizimiga mos bo‘lgan hisoblagichlar o‘rnatilishini ta’minlash hamda aloqaga chiqmaganlarini aloqasini tiklash. | | ulgurji iste’molchilarga ASKUE tizimiga mos bo‘lgan hisoblagichlar o‘rnatilishini ta’minlash. Aloqaga chiqmayotgan jami 354 ta, shundan 296 ta aholi iste’molchilarini va 58 ta ulgurji iste’molchilarni ASKUEga aloqaga chiqarilishini ta’minlash | | | | korxonasi | |